



SANOAT KORXONALARIDA IXTISOSLASHUV VA KOOPERATSION ALOQALARINI RIVOJLANTIRISHNING OB'JEKTIV ZARURLIGI VA IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI

Annotatsiya:

Mamlakat milliy iqtisodiyotini modernizatsiyalash va texnik hamda texnologik qayta qurish jarayonlari kechayotgan taraqqiyotning hozirgi bosqichida iqtisodiyotni erkinlashtirish, o'tkazilayotgan bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish asosida mulkdorlar sinfini shakllantirish, aholining umumiy bandligini oshirish, korxonalar o'rtasida barqaror kooperatsion aloqalarni shakllantirish va bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rolini oshirish yo'llari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar:

sanoat korxonalari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, ixtisoslashuv, kooperatsiya, sanoat kooperatsiyasi.

Information about the authors

Qosimova Hilola Jamshedovna
BDU, o'qituvchi

Mamlakat milliy iqtisodiyotini modernizatsiyalash va texnik hamda texnologik qayta qurish jarayonlari kechayotgan taraqqiyotning hozirgi bosqichida iqtisodiyotni erkinlashtirish, o'tkazilayotgan bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish asosida mulkdorlar sinfini shakllantirish, aholining umumiy bandligini oshirish, korxonalar o'rtasida barqaror kooperatsion aloqalarni shakllantirish va bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBXT) ning rolshi oshirish o'z yechimini kutayotgan eng dolzarb muammolardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini shakllantirish, amalga oshirish va hisobot tizimini yuritish hamda ushbu jarayonda davlat boshqaruvi organlari va loyihalar tashabbuskorlarining o'zaro hamkorlik qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarorida ta'kidlaganidek: "...korxonalar o'rtasidagi kooperatsion aloqalarni kengaytirish va bu jarayonga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini faol jalb qilish zarur. Shuni nazarda tutish kerakki, kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish hozirgi sharoitda korxonalar va iqtisodiyot tarmoqlari faoliyati barqarorligining kuchli omili, mahsulotlarning yangi turlarini o'zlashtirish va eng asosiysi – yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi bandligi va daromadlarini ko'paytirishning eng muhim yo'nalishi hisoblanadi¹».

2017-2021 yillarda 5 ta ustuvor yo'nalish bo'yicha Harakatlar strategiyasini tasdiqlash asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishdan iborat ekani buning yorqin tasdiqidir. "...Ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirish, eng avvalo, iste'mol tovarlari va butlovchi buyumlar importi, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish" hisoblanadi². Bugungi kunga kelib, KBXT ni rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash borasidagi

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.12.2019 yildagi 1009-son qarori

² "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7- fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.



respublikamiz hukumatining izchil iqtisodiy siyosati tufayli mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining me'yoriy-huquqiy zamini mustahkamlandi, Sanoatda kooperatsion aloqalari (SKA)ga keng yo'l ochib berildi, kredit berish muddatlari uzaytirildi, biznesni ro'yxatga olish, ixtiyoriy ravishda yopish va tugatish, ayrim faoliyat turlari bo'yicha litsenziya va ruxsatnomalarni berish jarayonlari soddalashtirildi, tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun boj haqi, banklarda hisob raqamlarini ochish, kadastr xujjatlari, ekologik ekspertiza, soliq va statistika hisobotlarini topshirish muddatlari va to'lovlari miqdori pasaytirildi, ayrim to'lovlar bekor qilindi. Ammo, davlatimizning iqtisodiyotni modernizatsiyalash, mintaqalar va iqtisodiyot tarmoqlarini, ni rivojlantirish orqali tadbirkorlik samaradorligini yanada oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlari hamda turmush farovonligini yuksaltirish siyosati amalga oshirilayotgan sharoitda respublikamiz mintaqalarida ning shakllanishi va rivojlanishi muammolarini aniqlash hamda bartaraf etish, ni tadbirkorlik taraqqiyotidagi ahamiyati va rolini asoslash, mintaqalarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ning turli shakllardagi yangi mexanizmlarini yaratish, ularning barqarorligini ta'minlash orqali sohani yanada jadal rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan yondoshuvlarni, tavsiya va takliflarni ishlab chiqish mamlakatimiz iqtisodiyot fani oldida turgan muhim muammolardan sanaladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari bozor iqtisodiyoti institutsional tuzilmasining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki istalgan bir mintaq yoki iqtisodiyot tarmog'i kichik va yirik biznes (XO'JALIK YURITUVCHI) sub'ektlarining ratsional nisbatlarda rivojlanishini taqozo qiladi, shu sababli ham barcha iqtisodiyot tarmoqlarida va mintaqalarda KBKA ni, o'zaro hamkorlik shakllarini ilmiy jihatdan chuqur tadbiq etish hozirgi iqtisodiy taraqqiyot bosqichining dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Agar biz KB sub'ektlari kooperatsion aloqalariga tizimli yondashuv nuqtai nazaridan yondashadigan bo'lsak, u holda kooperatsion aloqalar bevosita unda ishtirok etuvchi tomonlar, ya'ni iqtisodiy hamkorlarning hatti- harakatlari, hamda tashqi muhit ta'sirlariga bevosita bog'liq. Bunda iqtisodiy hamkorlar sifatida turli xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, jumladan, KBXT sub'ektlari, ishlab chiqarish va boshqaruv faoliyati bilanshug'ullanuvchi mustaqil korxonalar maydonga chiqishi mumkin. O'zaro aloqaga kiruvchi tizimlar tarkibiga KB sub'ektlari ham kiradi. KB sub'ektlarining boshqa iqtisodiy agentlar bilan kooperatsion aloqalari jarayoni bir yoki bir nechta tizimlarga chiqish, hamda boshqa tizimlarning kirish aloqalarini nazarda tutadi. Keyingi yillarda ham ilmiy, ham maxsus ommabop nashrlarda, mutaxassislar ishbilarmon kishilar o'rtasida KYB kooperatsiyasi, kooperatsion aloqalar atamasining "KYB ning kooperatsion aloqalari", "KYB ning o'zaro ta'siri", "KYB sub'ektlari kooperatsiyasi", "KYB hamkorlik aloqalari", "KYB ning ishlab chiqarish kooperatsiyasi", "KYB ning sanoat kooperatsiyasi" "matlubot kooperatsiyasi", "qishloq xo'jaligida kooperatsiya", "KYB ning bevosita va bilvosita aloqalari" kabi talqinlari ko'p uchraydi. KBKA jarayoni mazkur tadqiqot ishimizda qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda taklif qilingan turli mezonlar bo'yicha quyidagicha tavsiflanishi va tasniflanishi mumkin bo'ladi. Biz taklif etayotgan yuqoridagi kooperatsion aloqalar tasnifiga ko'ra, quyidagi mezonlar farqlanadi.

1. Kooperatsiyani qaysi iqtisodiyot tarmog'ida amalga oshirilishiga ko'ra, sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, savdo, xizmat ko'rsatish, ta'minot kooperatsiyasi kabi turlari farqlanadi. Eng keng tarqalgan kooperatsion aloqalar, asosan, sanoat, qishloq xo'jaligida kuzatiladi.
2. Kooperatsion aloqalarni amalga oshiruvchi sub'ektlarning miqyosiga ko'ra, KB sub'ektlari, kichik va yirik biznes sub'ektlari, yirik biznes sub'ektlari kooperatsiyasi farqlanadi. KBKA sub'ektlari kooperatsiyasida yakka tadbirkor, mikrofirm va kichik korxonalar kooperatsion aloqalarga kirishsa, KYB sub'ektlari kooperatsiyasida yuqoridagilarga o'rta va yirik korxonalar qo'shilgan holda kooperatsion aloqalar o'rnatiladi.



3. Kooperatsion aloqalarning kelib chiqishi va zichligiga ko'ra, mustaqil va turdosh tuzilmalar kooperatsiyasi farqlanadi. Kichik biznes sub'ektlari yirik ishlab chiqarish tuzilmasi negizida tashkil etilishi mumkin yoki boshqa kichik korxona tomonidan vujudga keltirilishi mumkin. Bunday holda turdosh bo'lgan sub'ektlar to'g'risida so'z yuritiladi (masalan, sho'ba va ona firmalar). Kichik korxonalar yoki mikrofirmalar vujudga kelgan dastlabki davrlarda o'zaro turdosh aloqalar zichligi yuqori darajada bo'ladi va vaqt o'tishi bilan asta-sekin susaya boshlaydi.

1-jadval Kichik biznes kooperatsion aloqalarining tasnifi

№	Tasniflash mezonlari	Kooperatsion aloqalar variantlari
1.	Kooperatsiyani qaysi sohadaamalga oshirishga ko'ra	Qishloq xo'jalik, sanoat, savdo, moliyaviy, xizmat ko'rsatish, ta'minot, ishlab-chiqarish xo'jalik kooperatsiyasi va h.k.
2.	Kooperatsion aloqalar subektlariga ko'ra yoki miqyosiga ko'ra	KB subektlari kooperatsiyasi, kichik va yirik biznes sub'ektlari kooperatsiyasi, YB sub'ektlari kooperatsiyasi.
3.	Kooperatsion aloqalar genezisi va zichligiga ko'ra	Mustaqil tuzilmalar kooperatsiyasi, turdosh tuzilmalar kooperatsiyasi.
4.	Kooperatsion aloqalar ishtirokchilari soniga ko'ra	Oddiy ikkita sherikning ikki tomonlama, bir necha sheriklarning ko'p tomonlama aloqalari
5.	Kooperatsion aloqalar barqarorligiga ko'ra	Iqtisodiy simbioz va nobarqaror kooperatsion aloqa
6.	Olib boriladigan hududiga ko'ra	Mahalliy, mintaqaviy, milliy, xalqaro Kooperatsiya
7.	Kooperatsiya predmetiga ko'ra	Franchayzing, kredit, sotuv, venchur, ishlab chiqarish kooperatsiyasi
8.	Kooperatsion aloqalar ochiqlikiga ko'ra	Ochiq va yashirin kooperatsiya
9.	Kooperatsiya ko'lamiga ko'ra	Kichik, o'rta va yirik kooperatsiya
10.	Kooperatsiya yo'nalishi va tavsifiga ko'ra	Vertikal, gorizontal va aralash kooperatsiya
11.	Kooperatsiya bosqichlariga ko'ra	Bir, ikki va ko'p bosqichli kooperatsiya
12.	Kooperatsiya davomiyligiga ko'ra	Vaqtinchalik va doimiy, bir martalik Kooperatsiya
13.	Kooperatsiyaning to'liqligiga ko'ra	Qisman va to'liq kooperatsiya
14.	Kooperatsion aloqalar yo'nalishiga ko'ra	An'anaviy va innovatsion kooperatsiya
15.	Kooperatsiyani ishtirokchilarining muayyan sohaga mansubligiga ko'ra	Ishlab chiqarish xo'jalik, boshqaruv va muvofiqlashtiruvchi, moliya-kredit tizimli tuzilmalar

Manba: Muallif ishlanmasi

4. Ta'kidlash joizki, affilatsiyalashgan (fransuzcha **“affiliation”** – birlashish) tuzilmalar ham vujudga kelishi mumkin. Biroq vaqt o'tishi bilan bu aloqalar zaiflashib, yangi tashkil etilgan korxonalar mustaqil tuzilmaga aylanishi yuz beradi. Kooperatsion aloqalarning rivojlanish jarayoni teskari yo'nalishda ham amalga oshirilishi mumkin, ya'ni dastlabki mustaqil korxonalar “yashash uchun” doimiy sherik topib va bu ishonchli sherik bilan mustahkam aloqalar tizimini o'rnatganlaridan keyin, bu sheriklar o'z navbatida iqtisodiy manfaatlari va maqsadlari turdosh yoki bir xil tizimda bo'lganligi sababli kooperatsion aloqalar endi teskari yo'nalishda ham amalga oshiriladi.
5. Kooperatsion aloqalar ishtirokchilari soniga ko'ra o'zaro hamkorlik aloqalari oddiy 2 ta ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalarning 2 tomonlama aloqalari hamda bir nechta sherikning ko'p tomonlama aloqalariga ajraladi.



6. Kooperatsion aloqalarni olib boriladigan hududiga ko'ra, tor doiradagi mahalliy kooperatsion aloqalar, mintaqaviy, milliy va xalqaro darajadagi kooperatsion aloqalarga ajratiladi. Albatta, bu tasnifni yanada aniqlashtirish maqsadida mikro, makro, mezo, mega kooperatsion aloqalar deb takomillashtirish mumkin.
7. Kooperatsion aloqalar predmetiga ko'ra franchayzing, lizing, ishlab chiqarish, moliya-kredit, qo'shma korxona, ilmiy parklar, tijorat triangulyatsiya, tijorat transfert, venchurga asoslangan hamkorlik munosabatlariga ajraladi. Bular haqda dissertatsiyaning keyingi bo'limlarida batafsil to'xtalib o'tamiz.
8. Kooperatsion aloqalar ochiqqligiga ko'ra ochiq va yashirin kooperatsiya turlari farqlanadi. Albatta, bu yerda yarim yashirin, shuningdek, kriminal kooperatsion aloqalar kabi boshqa turlari ham uchrashi mumkin.
9. Kooperatsion aloqalarning ko'lamiga va hajmiga ko'ra kichik doiradagi va hajmdagi yoki yirik kooperatsiya turlari farqlanadi.
10. Kichik biznes sub'ektlari kooperatsion aloqalarining yo'nalishi va tavsifi bo'yicha aralash (*ham gorizontal, ham vertikal*), vertikal hamda gorizontal kooperatsion aloqalarini ajratib ko'rsatish mumkin.
11. Kooperatsion aloqalarning izchilligi va ketma-ketligiga ko'ra bir bosqichli, 2 bosqichli va ko'p bosqichli aloqalar farqlanadi, ya'ni kooperatsion aloqalar faqat bir, ikki bosqichdan iborat bo'lish yoki 4-5 bosqichdan iborat bo'lishi mumkin.
12. KBKA ning davomiyligiga ko'ra, bir martalik yoki vaqtinchalik, ko'p martalik yoki doimiy kooperatsion aloqalar farqlanadi. Bir martalik kooperatsion aloqalar muayyan bir detall yoki butlovchi qismni yagona buyurtma orqali tuzatirib olishni nazarda tutsa, ko'p martalik yoki doimiy kooperatsion aloqalar muayyan bir sheriklar bilan uzoq muddatli ish olib borishni nazarda tutadi.
13. Kooperatsion munosabatlarning kompleksligiga ko'ra, qisman va to'liq kooperatsiya farqlanadi. Agar qisman kooperatsiya muayyan bir tovar yoki xizmatning ayrim qismlarinigina ishlab chiqarish nazarda tutsa, to'liq kooperatsiya muayyan bir tovar yoki xizmatni to'la kooperatsiya asosida ishlab chiqarishni yoxud biron tadbirkorlik g'oyasini to'la qo'lga tovar yoki xizmat sifatida yetib borishigacha bo'lgan jarayonni kooperatsiyalashuvini nazarda tutadi.
14. KBKA o'z ko'lamiga ko'ra, an'anaviy tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi (non, go'sht, velosiped, stol, ko'ylak) an'anaviy kooperatsion aloqalar hamda innovatsion tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni ko'zda tutuvchi (uzayib, kichrayadigan avtomobil, yorug'likli yostiq, kislorod barlari va h.k.) innovatsion kooperatsion aloqalarga ajraladi.
15. Kooperatsion aloqalarni amalga oshiruvchi tomonlarni muayyan sohagamansubligiga ko'ra, ishlab-chiqarish «xo'jalik tuzilmalari kooperatsion aloqalari, boshqaruv» muvofiqlashtiruv tuzilmalari bilan kooperatsion aloqalari va moliya-kredit tizimi tuzilmalari kooperatsion aloqalari farqlanadi. Ishlab-chiqarish xo'jalik tuzilmalari kooperatsion aloqalari turli yo'nalishdagi har xil korxonalar bilan kooperatsiyani nazarda tutsa, boshqaruv-muvofiqlashtiruv tuzilmalari bilan kooperatsion aloqalar mahalliy hokimiyat organlari, soliq va bojxona organlari bilan moliya- kredit tizimi tuzilmalari bilan hamkorlik aloqalari esa banklar, kredit tashkilotlari bilan kooperatsiyani nazarda tutadi.

Ta'kidlash joizki, ishlab chiqarish kooperatsiyasi KB sub'ektlarining yirik biznes sub'ektlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalarining tarixan dastlabki vujudga kelgan va keng tarqalgan turi hisoblanadi. U ayniqsa sanoat uchun xos bo'lib, asosan ishlab chiqarish bir qancha texnologik sikllardan tashkil topgan va yirik va kichik biznes kompaniyalari vertikal bo'yicha kooperatsion aloqalarga kirishganda



yuzaga keladi. Ushbu hamkorlik shaklining keng tarqalganligining asosiy sababi shundaki, KB rivojlanishining dastlabki bosqichlarida kichik korxonalar soni uncha katta emas va iqtisodiyot tarmoqlarida ham ularning konsentratsiyasi juda past edi. O'tkazilgan tahlillar ko'rsatishicha, yirik va kichik biznes tuzilmalarining hamkorlik aloqalari natijasida asosan har ikkala tomon uchun ham manfaatli bo'lgan, bozor ummonida "qalqib turish" ning qo'shma strategiyasini ishlab chiqishga imkon berdi. Shuning uchun ham, bu davrda aynan yirik biznes sub'ektlarining faoliyatiga u yoki bu darajada bog'liq bo'lgan kichik korxonalar soni qariyb 60 foizini tashkil etar edi. Ammo, vaqt o'tishi bilan respublikamizda iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi hamda kichik biznes sohasiga alohida e'tibor qaratilishi natijasida ko'pgina kichik korxonalar va yirik korxonalar iqtisodiy manfaatlari farqlanib, bir- biridan mustaqil bo'la boshlandi. Ko'pchilik yirik korxonalar bozor o'zgarishlariga moslasha olmasdan bankrotlik yoqasiga kelib qolganligi uchun ular bilan kooperatsiyada ishlayotgan kichik biznes sub'ektlari o'z ixtisosini o'zgartirishga va transformatsiyalashuvga majbur bo'lishdi. Keyinchalik xususiylashtirish jarayonlarining chuqurlashuvi hamda tarkibiy o'zgarishlar, qayta qurish jarayonlarining kuchayishi evaziga kichik va yirik biznes sub'ektlari kooperatsion aloqalari yanada keng quloch yoydi. Lekin, ta'kidlash joizki O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning keng rivojlanishi va ularning sonini muttasil oshib borishi dastlabki bosqichda aynan kichik biznesning yirik biznes bilan kooperatsion aloqalari orqali ko'proq maydonga chiqdi.

Ma'lumki, O'zbekiston sharoitida kichik va yirik tadbirkorlikning intrapreneerlik va inkubatorlik kabi shakllari yetarlicha rivojlanmagan. Ammo, respublikamiz mintaqalarida biznes-inkubatorlarning tarmog'i kamsonda bo'lsada qoniqarli darajada faoliyat yuritmoqda.

Respublikamiz viloyatlari va shaharlarida savdo sohasida inkubatorlikning ishtirokchilari kam sondagi va yirik namunalari sifatida korzinka.uz oziq-ovqat do'konlari, texaco yoqilg'i moylash materiallari do'konlari, "Beta choy", "Uzbat" tamaki mahsulotlari do'konlarini, Car Wash avtomobillarni yuvish va texnik xizmat ko'rsatish shoxobchalari tarmog'ini ayitishimiz mumkin.

Sanoati rivojlangan mamlakatlardagi yirik va kichik biznes sub'ektlarining ishlab chiqarish kooperatsiyasi tahlili ularda rivojlangan xo'jalik huquqi tizimi va ko'p tarmoqli infratuzilma tufayli amalga oshirilganligi sababli taraqqiy qilgan. Shu asosda bu davlatlarda lizing, franchayzing, yordamchi shartnomalar tizimi orqali KBXT sub'ektlarining ko'pchiligi yuqori texnik qurollanishga, ishbilar-monlik bitimlari va operatsiyalarini amalga oshirishning juda tezligiga hamda ular bilan bog'liq xarajatlarni pasaytirishga erishishgan. Venchur moliyalashtirish yordamida esa ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilashning uzluksizligi va intensivligi ta'minlangan. KBXT ning chuqur rivojlangan kooperatsiya aloqalarining ilg'or shakl va turlarini milliy iqtisodiyotimizda rivojlanib kelayotgan kichik biznes faoliyatida keng qo'llanilishi bu soha rivojlanishini yangi yuqori bosqichga jadal o'tishini ta'minlaydi.

Fikrimizcha, yirik va kichik bizes kooperatsiyasining muvaffaqiyati omillaridan bo'lgan bozorning har bir segmentida qat'iy raqobat va ixtisoslashuvning o'ta yuqori darajasiga erishish, egiluvchan texnologik va sotuv zanjirlarining qurilishi hisobiga transaksion hamda "qo'shimcha" harajatlarning pasaytirishga intilish, yangi tashkil etilayotgan korxonalar faoliyatini innovatsion boshlanishini kuchaytirishga intilish, xo'jalik huquqi bilan birgalikda ko'rib chiqilgan samarali moliya-kredit texnologiyalari orqali tavakkalchilik tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash va boshqalar YKB kooperatsion aloqalarini yanada mustahkamlaydi va uning barqarorligini hamda samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezident-shavkat-mirziyeevning-oliyasy-28-12-2018>



2. Shavkat Mirziyoyev qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. <https://daryo.uz/k/2019/09/06/shavkat-mirziyoyev-qishloq-xo'jaligini-tartiblantirish-ustuvor-yo'nalishlariga-bag'ishlangan-yig'ilish-otkazdi/>
3. Jamshedovna K. H. The Role of Corporate Governance in Bank Management //EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY. – 2022. – T. 2. – №. 11. – С. 32-36.
4. Данилина Я.В., Клейнер Г.Б. Управление малыми многопрофильными корпорациями. Сб. Микроэкономические предпосылки экономического роста. М., ЦЭМИ РАН, 1999
5. Abdulloyev A. Qishloq x'jaligida klaster mexanizmidan foydalaniшни takomillashtiriш masalalari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 9. – №. 9.